


102. Sonni 5 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
kupyurlar, pullar.

Bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.



Har bir qog'oz kupyurni tangalar bilan almashtirish mumkin.



1 ta tanga



5 ta tanga



10 ta tanga



50 ta tanga

1. Onasi Aziza uchun bo'yoqlar, plastilin va rangli qalamlar sotib oldi. Hamma xarid uchun 30 ming so'm to'lash kerak. U bunday  kupyurlardan nechtasini sanab beradi?

$$\begin{array}{ccccccccc} \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} \\ \hline 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 \end{array} = 30$$

?

Bu yozuvni qanday qisqa amal bilan almashtirish mumkin?

2. Madinada  kupyur bor. U bu pulini maydaroq kupyurlarga almashtirmoqchi.

a) Maydalashda u 5 ming so'mlik kupyurlardan nechta oladi?

$$\begin{array}{ccccccccccc} \text{50000} & = & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} & + & \text{5000} \\ \hline & = & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 & + & 5 \end{array}$$

?

b)  kupyurlardan-chi?

$$\begin{array}{ccccccc} \text{50000} & = & \text{10000} & + & \text{10000} & + & \text{10000} & + & \text{10000} & + & \text{10000} \\ \hline 50 & = & 10 & + & 10 & + & 10 & + & 10 & + & 10 \end{array}$$

?



3. O'quvchilarning shahar bo'ylab sayohati chog'ida tamaddi qilishlari uchun 30 quti pecheniy va sharbat xarid qilish kerak.
- Pecheniy qadoqda 5 qutidan sotiladi. Necha qadoq pecheniy olish kerak?
 - Qadoqda 6 quti sharbat bo'ladi. Necha qadoq sharbat olish kerak?



4. Azim do'kondan donasi 3 ming so'mdan 7 ta daftar sotib oldi. Unga  kupyurdan qancha qaytim qaytarilishi kerak?



5. Izlanish o'tkazing:
- Uzunligi 20 katak bo'lgan kesma chizing. Uni 5 ta teng qismga bo'ling. Bitta qismning uzunligi santimetrlarda nimaga teng?
 - Uzunligi 10 cm bo'lgan kesma yasang. Uni qismlarga shunday ajratingki, har bir qismning uzunligi 5 cm ga teng bo'lsin. Necha qism hosil bo'ladi?
 - 2, 5 va 10 sonlarini ko'paytirish va bo'lish orasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi to'rtta ifoda yozing.



6. Baravardan bo'ling.
- 50 ming so'mni 5 nafar ishchiga;
 - 45 ta daftarni 9 nafar o'quvchiga;
 - 20 ta somsani 4 ta likopchaga.



7. Hisoblashlarni bagaring.

$$(45 : 5) + 63$$

$$(14 + 18) : 8$$

$$(90 - 72) : 9$$

$$71 - (35 : 7)$$



8. Agar Madina 7 tangadan 2 quti sut sotib olsa, u 50 tangadan qancha qaytim oladi?